

PSIXOLOGIYADA DEVIATSIYA MUAMMOSI VA UNING XUSUSIYATLARI

Ishonkulova Norbiyi Islamovna
Samarqand davlat universiteti psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada deviatsiya tushunchasi, deviant xulq-atvor mexanizmi, o‘smirlig yoshida xulqi og‘ishish holatlarining vujudga kelishi, ularga turki beruvchi omillar, deviant xulq muomala belgilari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: deviant xulq, tarbiya, xulqi og‘ishganlik, psixik rivojlanish.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz rahbarining tashabbusi va bevosita rahnamoligida yoshlар tarbiyasi, ularning ma’naviyatini yuksaltirish borasidagi islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Mazkur isohotlarning asosiy maqsadi yoshlarni kamol toptirish, iqtidorini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat.

Shunday ekan, ushbu islohotlarni amalga oshirish uchun ta’lim muassasalari oldiga bir qator ustuvor vazifalar qo‘yilgan. Ana shunday vazifalardan biri yosh avlodni har tomonlama yetuk barkamol qilib voyaga yetkazish bo‘lib, ushbu vazifani yuqori darajada amalga oshirish uchun oilalar, mahallalar, barcha ta’lim muassasalari tinmay mehnat qilmoqdalar. Shunga qaramay yoshlар tarbiyasida bir qator muammolar bo‘lmoqda. Shunday muammolardan biri bolalar xulqining og‘ishishi muammosidir. Xulq og‘ishi psixologiyada "deviatsiya" degan termin bilan yuritiladi. [1]

Deviatsiya bir qadar ommaviy hodisa hisoblanib, jamiyatda yuz beradigan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ruhiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ba’zi hollarda jamiyatdagi hodisa va jarayonlar deviant xulq-atvorning u yoki bu turini paydo bo‘lishi, kengayishi yoki yo‘qolib ketishiga sabab yoki oqibat bo‘lmoqda. Ba’zan bu o‘zaro bog‘liqliklar shu darajada mustahkam bo‘ladiki, jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar xulq-atvor sababimi yo oqibatimi yoki uning tarkibiy qismi ekanligini aniq aytib bo‘lmaydi. Har holda ularni jamiyat hayotining ijtimoiy holatlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lganini ko‘rib chiqish mumkin.

Psixologiyada deviant xulq faqat o‘smirlarga xos xususiyat sifatida qaralib, bunday xulqni keltirib chiqaruvchi mexanizmlarni o‘rganayotganda o‘smirning psixologik va psixofiziologik xususiyatlari, masalan, o‘smirning turli qiyinchiliklarni yengishi yoki undan qochishi, sharoitga moslashishi yoki qutilishi, sharoitni baholash va qaror qabul qilishidagi tezkorlik xususiyatini ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi.

Deviant xulq-atvor mexanizmini soddalashtirilganda uning to‘rt asosiy bo‘g‘ini namoyon bo‘ladi: muammo (ziddiyatli), sharoit, qadriyatli – me’yoriy, boshqaruv qaror qabul qilish holatini amalga oshirish. [2]

Ma’lumki, deviatsiya, deviant xulq «Og‘ish» degan ma’noni bildirib, ko‘pincha inson xatti- harakatlarining ijtimoiy normalaridan salbiy yoki ijobiy tomonga og‘ishi bilan harakterlanadi.

Psixologiyada deviant xulq faqat o'smirlik yoshiga talluqli jarayon sifatida tavsiflanadi va bu jarayon o'smirning har tomonlama, ham fiziologik, ham psixologik jihatdan tez o'sishi tufayli ijtimoiylashuvning qiyinlashganligini (o'smir o'zini katta deb hisoblashi) sababidan tushuntiriladi. Bu xususda juda ko'plab tadqiqodlar va ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shu paytgacha hech bir matbuot nashrlarida maktabgacha bolalar deviatsiyasi, kichik maktab yoshidagi bolalar deviatsiyasi, yoshlar va kattalar hatto qariyalar deviatsiyasi degan mavzu ostida maqola nashr qilinmagan. Nima uchun? Boshqa yoshdagilarning xulqida kamchiliklar, og'ishlar yo'qmi? Yoki ular tuzatishga, korreksiyaga muhtoj emasmi? degan bir qator savollar tug'iladi. Albatta muxtoj. Hali bu borada talaygina izlanishlar olib borish lozim.

Xususan, yosh davrlar deviatsiyasi borasida ham izlanishlar olib borish lozim. Misol uchun: 3-4 yoshli bolalarning ba'zilarida hayron qolarli darajada boplab so'kib qo'yish holatlarini, 5-6 yoshli bolalarning ba'zilarida axloqsizlikning anchagina qo'pol ko'rinishlarini, kichik maktab yoshida ham doimiy bezorilik, to'polonchilik, yolg'onne ko'p ishlatish holatlari kuzatiladi. Siz bu fikrlarga qanday qaraysiz? Bu fikrlar shunchaki oldi-qochdi gaplar, ular bolalarning sho'xligidan boshqa narsa emas dersiz hoyna-hoy. Aslo unday emas. Agar bola rivojlanishining 70% ini maktabgacha yoshga to'g'ri kelishini hisobga olsak, deviant xulqning aynan o'sha davrda ildiz otishini, uning kelib chiqish sabablari (oila, tabiiy va ijtimoiy muhit, bola psixofiziologiyasi...) mavjudligini anglash mumkin bo'ladi. Bunday holatlarni bartaraf qilish borasida esa hali ko'p ish qilinmaganligiga guvoh bo'lamiz. [3]

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, deviant xulq nafaqat o'smirlik yoshiga balki, boshqa ko'pgina (maktabgacha yosh davri, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik, yoshlik, yetuklik, qarilik) yosh davrlariga ham taalluqlidir.

Bunga katta bir muammo sifatida qaraydigan bo'lsak, bu soha psixologiya fanlarining oldidagi navbatdagi vazifasi sifatida qarash mumkin. Jamiyatimiz a'zolarining har jihatdan yetuk, faol, muomalaga layoqatli bo'lishi uchun psixologlar ham javobgarlar. Negaki, jamiyatga insoniyatga ko'proq axloqli, diyonatli, o'z pozitsiyasidan og'ishmagan odamlarning foydasi tegishi hech kimga sir emas.

Deviant xulqning har bir yosh davriga mos ravishda tashxislash va tuzata bilish, shu bilan birga shaxsni faol turmush tarziga qaytara olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun ijtimoiy psixologiya, eksperimental psixologiya, psixodiagnostika va yosh davrlarni psixologiyasi fanlari oralig'ida ular bilan hamkorlik qiladigan yangi psixologiya sohasi - Deviantologiya ("Deviant" – "og'ish", "logos" – "fan") sohasini takomillashtirish va uni amaliyatga joriy qilish ahamiyatini dolzarb masala sifatida olib chiqish lozim. [4]

Mazkur sohani o'rganish va tatbiq etish shuning uchun ham kerakki, insonning insoniyatga xlavf soladigan jinoyat ko'chasiga kirib qolishining oldini olish, jinoyatchilikning motivatsiyasini chuqur tahlil qilish hamda ushbu yo'lga kirib og'ishganlarni faol turmush tarziga qaytarishdir. Bunday faol turmush tarzi inson uchun, jamiyat uchun juda muhimdir.

Deviant xulq-atvor o‘z-o‘zidan osmondan tushib qolgan qismat emas. Bu jarayonda oiladagi psixologik iqlim, shaxsning individual xususiyatlari, hamda nosog‘lom tashqi muhit inson xulqi shakllanishiga ta’sir etadi. Bunda kattalarning bolalarga munosabati uning shaxs bo‘lib shakllanishida ahamiyati benihoyadir.

Deviantologiya sohasini chuqur tahlil qilish asosida uning yana bir qancha jihatlari ochilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Ulardan biri kasbiy deviatsiyadir. [5]

Kasbiy deviant xulqining motivatsiyasini tahlil qilish quyidagicha xulosalar yasashga imkon beradi:

- O‘z manfaatlarini jamiyat manfaati bilan uyg‘un tasavvur eta olmaslik, ya’ni xudbinlik;
 - Hayot qiyihchiliklarini yengishda qobiliyasizlik, tezda mavjud egri yo‘llardan foydalanib bo‘lsada muammoni hal qilishga intilish, ya’ni irodasizlik;
 - O‘z mutaxassisligi sohasini yaxshi egallamaganligini har qanday yo‘l bilan bo‘lsada berkitishga urinish, o‘z ustida ishlashdan qochish (dangasalik);
 - Boshqa mutaxassislarning yutuqlarini, ijtimoiy ahamiyatini oldindan sezib ularni o‘zlashtirishga moyilligi kabilardir.

Xulqi og‘ishgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro yaqinlik va sog‘lom munosabatni o‘rnatishga bog‘liqdir. Shuning uchun o‘qituvchining tarbiyasi og‘ir o‘smirga nisbatan berayotgan e’tiborini, ularni o‘zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo‘layotganligini o‘smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bu o‘smir xulqini sog‘lomlashtirishga qo‘yilgan ilk qadam bo‘lib hisoblanadi.

O‘smirdagi moslashmagan xulqni tuzatishning keying sharti o‘smir psixikasidagi o‘zgarishni o‘z vaqtida aniqlash va tibbiy, psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Bunda amaliyotchi psixologning xizmati katta bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, uchastka miliitsiya xizmati tayanch punktlari qoshidagi profilaktika nozirlari zimmasiga voyaga yetmaganlar bilan ishlash xizmatini yuklash yoki bo‘lmasa voyaga yetmaganlar bilan ishlash profilaktika nozirlari xizmatini har bir mahallada alohida joriy qilish, bizningcha maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, voyaga yetmaganlar bilan ishlash nozirlarini psixologik-pedagogik, psixiatrik boshlang‘ich bilimlar bilan qurollantirish davr taqozosi hisoblanadi. [6] Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishini oldini olishning muhim shartlaridan yana biri-tarbiyaviy jarayonda maktab va oila hamkorligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. Afsuski, bu masalani bugungi kunda talab darajasida deya olmaymiz. SHuning uchun ham bunday paytlarda ko‘pincha oila va maktab hamkorligi, ota-onasi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning uzilishi tufayli bolalar va o‘smirlar tabiyasini, ayniqsa, ular xulqidagi o‘zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi. O‘qituvchi o‘quvchi o‘sib voyaga yetayotgan oila muhitini, uning axloqiy qiyofasini har doim ham bilavermaydi. Ba’zan ayrim o‘qituvchilar bolalar va o‘smirlar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarni ota-onalar bilan maslahatlashmay, ular haqida muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lmay amalga oshiradilar. Bunday holatlarda tabiiy ravishda tarbiyaviy tadbirlarning olib borilishi ko‘zda tutilgan profiklakrik choralarining ta’sirchanlik darjasini pasayishiga sabab boladi. Oqibatda profilaktikadan ko‘zlangan maqsadga

erishilmay qolinadi. Xulosa qilib aytganda, oila muhitining sog‘lomligi, ota-onalar va oiladagi boshqa a’zolarning madaniy, aqliy, ma’naviy va axloqiy jihatdan barkamolligi unda tarbiya olayotgan bolaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning ilm-u ma’rifatliligi bolalar va o‘smirlarda g‘ayriqonuniy xulqning oldini olishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Ushbu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, ota-onalarning ma’rifatlilik darajasi, aqliy, ma’naviy va axloqiy barkamolligi bolalar va o’smirlar o‘rtasidagi deviatsiyaning kelib chiqishining oldini olishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Bolalar va o’smirlar o‘rtasida deviatsiyaning oldini olishda qator psixologik-pedagogik masalalarga e’tibor qaratish kutilgan natijani beradi.

Adabiyotlar

1. Asadov Yu. "O‘smirlar deviant xatti-harakatining psixologik xususiyatlari " - Toshkent. 2011. 22-26 b
2. Yadgarova N.F. "Psixopatologik sindromlar to‘plami". – Toshkent . 2014. 35 b.
3. Xakimova L. M. "Deviant xulq-atvor psixologiyasi" -Toshkent. 2014. 15 b
4. Байярд Р.Т., Байярд Д. Ваш беспокойный подросток. М.: “Просвещение”, 1991. 33 стр
5. Захаров А.И. Как предупредить отклонения в поведении ребёнка.: 1986. 12 стр
6. Леви В.Л. Нестандартный ребёнок М., «Левицентр», 1996. 5 стр